ISNN 3030-3907

2025/4
VOLUME 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

PEDAGOGIK OMILLARNING INGLIZ KLASSIK ADABIYOTI VOSITASIDA TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI

Ziyodov Farruh Saodilla o'g'li
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Shaxs tomonidan tashkil qilinadigan har qanday ijtimoiy faoliyatning samarali kechishi va muvaffaqiyatli yakunlanishi obyektiv va subyektiv omillarning tegishli jarayonga ta'siriga bog'liq. Tabiiyki, ingliz klassik adabiyoti vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayoni ham obyektiv hamda subyektiv omillarning ta'sirida kechadi va kutilgan natijani qo'lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli OTMda tashkil qilinadigan pedagogik faoliyatda ushbu omillar ta'sirini yetarlicha baholash bilan birga ulardan ingliz klassik adabiyoti vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishda maqsadli foydalana olishlari zarur. Maqolada ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayoniga ta'sir etuvchi obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar, ularning tarbiyaviy ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ingliz klassik adabiyoti, ideal, ma'naviy-axloqiy ideallar, talabalar, rivojlantirish, omillar, talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish.

Аннотация. Эффективное протекание и успешное завершение любой социальной деятельности, организуемой личностью, зависит от влияния объективных и субъективных факторов на соответствующий процесс. Безусловно, процесс формирования и развития духовно-нравственных идеалов у студентов посредством английской классической литературы также осуществляется под воздействием как объективных, так и субъективных факторов и имеет большое значение для достижения ожидаемого результата. В связи с этим в педагогической деятельности, организуемой в высших учебных заведениях, необходимо адекватно оценивать влияние этих факторов и целенаправленно использовать их для формирования духовно-нравственных идеалов у студентов посредством английской классической литературы. В статье проанализированы объективные (внешние) и субъективные (внутренние) факторы, влияющие на процесс формирования духовно-нравственных идеалов у студентов на примере английской классической литературы, а также их воспитательное воздействие.

Ключевые слова: английская классическая литература, идеал, духовно-нравственные идеалы, студенты, развитие, факторы, формирование духовно-нравственных идеалов у студентов.

ISSN 3030-3907

Abstract. The effective implementation and successful completion of any social activity organized by an individual depends on the influence of objective and subjective factors on the given process. Undoubtedly, the process of forming and developing students' spiritual and moral ideals through English classical literature is also carried out under the influence of both objective and subjective factors and plays an important role in achieving the expected outcomes. Therefore, in pedagogical activities organized in higher educational institutions, it is necessary not only to adequately assess the impact of these factors but also to purposefully utilize them in the process of developing students' spiritual and moral ideals through English classical literature. The article analyzes the objective (external) and subjective (internal) factors influencing the process of developing spiritual and moral ideals in students, using the example of English classical literature, as well as their educational impact.

Keywords: English classical literature, ideal, spiritual and moral ideals, students, development, factors, development of students' spiritual and moral ideals.

KIRISH.

Ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish o'z mohiyatiga ko'ra murakkab, ko'p bosqichli va integral xarakterga ega pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday jarayon esa muayyan omillarning unga ko'rsatadigan ta'siri asosida kechadi. Shu sababli ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tashkil qilishda ham tadqiq qilinayotgan jarayonga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadigan samarali pedagogik omillarni aniqlash talab qilinadi.

Ayni o'rinda dastlab "omil", "obyektiv omil", "subyektiv omil" hamda "pedagogik omil" tushunchalarining nazariy tavsifini yoritish talab qilinadi.

"Omil" (a. "عامل" – sabab, ta'sirchan kuch; lot. "factor", rus. "faktor" – ishlovchi, harakatdagi) – 1) ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; 2) sabab [13, – 122-б.]; tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan sabab ; biror-bir jarayon yoki hodisada ko'zga tashlanadigab muayyan lahza, muhim holat [9]; jarayonni amalga oshirishda uni harakatga keltiruvchi yoki bu jarayonning sharoitlariga ta'sir etuvchi kuch [10]; har qanday jarayon yoki hodisaning sababi yoki ularni harakatlantiruvchi kuchi (omil bevosita jarayon yoki sharoitning tavsifini yoki individual xususiyatlarini belgilab beradi) [8]; ma'lum jarayon (mas., iqtisodiy jarayon) va uning natijasiga ta'sir qiluvchi shartlar, sabablar, parametrlar va ko'rsatkichlar [4]; jarayonga yoki uning natijasiga ta'sir qiladigan harakatlantiruvchi kuch, sabab, o'lchov yoki ko'rsatkich, sabab-oqibat o'rtasidagi birlikni ta'minlaydigan aloqa, munosabatlar [12].

ISSN 3030-3907

Bizning fikrimizcha, omil – jarayon, voqea-hodisalarning ro‘y berishiga turki bo‘luvchi sabab, borishini o‘zgartirish hamda natijalarning shakllanishi, kafolatlanishiga ta’sir etuvchi muhim holat.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shu narsani anglash mumkinki, omillar ma’lum jarayon, ish-harakat, voqea-hodisa ro‘y berganda (tashkil etilganda) ularning keyingi rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsadi; turtki beruvchi sabab, harakatlantiruvchi kuch, taqozo etiladigan shart-sharoit sifatida jarayon, ish-harakat, voqea-hodisalarning tavsifini yoritadi, xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot beradi; shu bilan birga jarayon, ish-harakat, voqea-hodisalarning natijalarini o‘lchovchi yoki baholovchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

Afsuski, manbalarda “omil” tushunchasining yoritilishiga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Pedagogik jarayon va uning tashkil qilinishiga oid kam sonli tadqiqotlardagina “omil” masalasi ilmiy izlanishning obyekti sifatida o‘rganilgan. Jumladan, Ye.V.Shvachko va G.Ya.Grevsevaning qayd etishicha, “sotsiologiyada ham pedagogikada ham omillar shaxsning shakllanishi, rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi, sababi sifatida ko‘riladi. F.F.Korolev ijtimoiy, irsiy va ta’lim omillarining shaxsning shakllanishidagi o‘rni va roli aniqlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, harakatlantiruvchi kuch bo‘lgan omillarsiz na tarbiya, na o‘qitish, na ta’limni tasavvur qilib bo‘lmaydi” [11, – c. 452].

Mavjudligi hamda shaxs (subyekt)ga bevosita tegishliligi nuqtayi nazardan omillar ikki guruhga ajratiladi: obyektiv va subyektiv omillar.

Ayni o‘rinda obyektiv va subyektiv xarakterdagi omillarning tavsifi va tizimini yoritish muammoning mohiyatining yetarlicha yoritilishini ta’minlaydi.

“Obyektiv omillar” tushunchasi “hodisalar, jarayonlarning rivojlanishi yoki ular yuzasidan qarorlar qabul qilishga ta’sir qiluvchi, shaxslarning irodasi, xohish-istaklari yoki ongidan tashqarida, mustaqil bo‘lgan tashqi sharoitlar, holatlar va omillar” [5] degan ma’noni anglatadi. Mas., tabiiy sharoit, ijtimoiy muhit (oila, ijtimoiy subyektlar (tashkilotlar, mas., ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat hamda ijtimoiy muhofazani amalga oshiruvchi muassasalari, boshqaruv organlari va b.), maishiy turmush tarzi (moddiy qimmatga ega buyumlarga egalik), ishlab chiqarish mahsulotlari, jamiyatda shakllangan va jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qadriyatlar tizimi (milliy urf-odat, udum, marosim, bayram, an’analar), milliy mentalitet va h.k.

Obyektiv omillar biror-bir shaxsning individual ta’siri bilan o‘zgarmaydi. Shuning uchun ular dominant (ustun, barqaror) sanaladi. Bu turdagi omillarni ko‘rish, his etish, tahlil qilish, tekshirish mumkin bo‘ladi. Obyektiv omillarning ayrimlari garchi ijtimoiy subyektning faoliyati natijasi sifatida namoyon bo‘lishiga

ISSN 3030-3907

qaramay, “shaxslar va ular faoliyatining ma’lum yo‘nalishlaridan qat’i nazar mavjudligini ifodalovchi shart-sharoitlar” [2] sifatida talqin qilinadi.

Subyektiv omillar – tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat mazmunini ifodalovchi omillar. Bu turdagi omillar “tebranishga moyil” (kuchli yoki kuchsiz ta’sirga egalik, kuchli yoki kuchsiz namoyon bo‘lish, ustuvor yoki ikkilamchi ahamiyatga egalik va h.k.) bo‘lib, o‘zgarib turishi mumkin. Biroq, shunga qaramay, ular sezilarli kuchga ega bo‘lishi mumkin. Bunday omillar asosan vaziyatga ko‘ra qisqa vaqt ichida namoyon bo‘ladi” [5].

Pedagogik jarayonning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan va ta’limiy (oldinga qo‘yilgan tarbiyaviy maqsad) nuqtayi nazardan quyidagilar subyektiv omillar sanaladi: talabalarning bilim olishga bo‘lgan yoki shaxsiy rivojlanishga erishishga bo‘lgan ehtiyoj, qiziqish, motivatsiya hamda shaxsiy rivojlanish dasturiga egalik; o‘quv-bilish faolligiga egalik; bilim va tarbiyalanganlik (rivojlanganlik) darajasi, talabalar guruhlarida sog‘lom psixologik muhitning qaror topganligi, talabaning tengdoshlari hamda pedagoglar bilan o‘zaro kommunikativ aloqasi va uning mazmuni, pedagogik jarayonda har bir talabaga xos individual xususiyatlar va qobiliyat darajasining hisobga olingani, talabaning oila a’zolari, tengdoshlari va pedagoglar tomonidan ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishi va rag‘bat bildirilishi, pedagoglarning kasbiy kompetentlik (bilimdonlik, metodik tayyorlik, pedagogik jarayonga ijodiy yondasha olish darajasi, shaxsiy ish tajribasiga, tahlil etilayotgan vaziyat bo‘yicha shaxsiy ish rejasiga, shuningdek, metodikani shakllantira olish qobiliyati, o‘ziga xos ish uslubi hamda ta’lim dasturiga egaligi).

Obyektiv omillar “aniq olingan subyektlar, shu jumladan, talabaning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan harakatlantiruvchi kuch”, subyektiv omillar esa “shaxslar, jumladan, talabalarning irodasi hamda tashabbusi negizida yuzaga keladigan turtki beruvchi kuch” [7] sifatida qabul qilinadi.

Qolaversa, omillar ularning yuzaga kelish sharoitiga ko‘ra “kutilmaganda (o‘z-o‘zidan) ro‘y beradigan, tasodifiy hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan omillar shaklida ham guruhlanadi. Agarda maxsus dasturlarda nazarda tutilmagan hamda mantiqiy jihatdan maqsadga muvofiq sodir etiladigan pedagogik ta’sirning mazmunini yoritishga xizmat qilmasa, u holda ushbu omillar tasodifiy, bordiyu, shaxsning tarbiyalanganlik darajasini va kundalik hayotiy muammolarini inobatga olgan holda uning ongi va xulq-atvorini o‘zgartirishga ta’sir etadigan omillar esa aniq maqsadga yo‘naltirilgan omillar” [7] deya baholanadi.

Demak, obyektiv omillar shaxsning bevosita ishtirokisiz yaratilib, moddiy va nomoddiy qiymatga ega bo‘lgan predmetlar sanalsa, subyektiv omillar esa shaxsning ichki imkoniyatlar, kasbiy va ijtimoiy kompetentlikka egaligi, jarayonni tashkil qilishga nisbatan yondashuvlari bilan bog‘liq.

ISSN 3030-3907

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “pedagogik omil” tushunchasini nazariy jihatdan yoritish imkoniyati yuzaga keladi.

“Pedagogik omil” (yoki “pedagogik omillar”) atamasi alohida tushuncha sifatida ta’lim sohasiga oid lug‘atlar, ma’lumotnomalar va ensiklopediyalarda kam ma’lumot berilgan. Bu esa u yoki bu pedagogik jarayonga ta’sir etuvchi omillarning imkoniyatlarini yetarlicha baholanmasligiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik omillar ta’lim sifati va tarbiya samaradorligini belgilab beradigan asosiy ta’sir etuvchi kuchlar, shuningdek, ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’sir qilib, ta’lim oluvchining intellektual, ma’naviy-axloqiy va estetik rivojlanishi hamda bu jarayonning natijasiga o‘zining jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar va sabablar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik omillar shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va maqsadga muvofiq rivojlantirishga ta’sir etuvchi barcha didaktik hamda tarbiyaviy omillardir.

A.I.Karmanchikov ta’lim muassasalari (xususan, maktab), oila va ijtimoiy muhitni an’anaviy (ya’ni, barcha davrlarda ham ahamiyatli bo‘lgan) omillar deya e’tirof etib, pedagogik vaziyatlarning shakllanishiga, ta’lim va tarbiya jarayoniga bevosita ta’sir qiladi [1, – c. 32], deb hisoblaydi.

Ta’lim sohasida obyektiv xarakterdagi pedagogik omillar pedagogik shart-sharoitlar deb ham yuritiladi. Darhaqiqat, ushbu omillar ta’lim/tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar – auditoriya, o‘quv jihozlari (o‘quv-me’yoriy hujjatlar (o‘quv rejasi, tegishli umumiy yoki mutaxassislik fanlari bo‘yicha ta’lim dasturlari, DTS yoki malaka talablari, tegishli ma’lumotga egalikni baholovchi mezonlar, o‘quv adabiyotlari (darslik, o‘quv hamda metodik qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar, xrestomatiyalar, lug‘at va ma’lumotnomalar, ish rejalari), ko‘rsatmali qurollar, o‘quv (geografik, kimyoviy, biologik, fizik qurilmalar; mashinalar (avtomobil, traktor, ekskavator va boshqalar) va qurilmalar (o‘lchov apparatlari, tashxislovchi uskunalar) va texnik vositalar, axborot texnologiyalari (interfaol doska, gadjetlar, kompyuterlar) va h.k.)ning mavjudligi obyektiv xarakterdagi pedagogik omillar sifatida e’tirof qilinadi.

Subyektiv xarakterdagi pedagogik omillar sirasida esa pedagogning kasbiy kompetentligi, ta’lim jarayonida ijodiy yondashuv va muhitning qaror toptirilgani, ijtimoiy subyektlar – ota-onalar, oila a’zolari, hayotiy tajribaga ega shaxslar, milliy qahramonlarning ibrati, talabalarning tegishli fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari, motivatsiyasi, o‘quv-bilish faolligiga egaliklari, talabalar tomonidan qayd etilgan ta’lim natijalari (malaka ko‘rsatkichlari) namoyon bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Pedagogika, psixologik va sotsiologiyada, shuningdek, tashqi hamda ichki omillar farqlanadi. Tashqi omillar “tashqaridan ta’sir o‘tkazgan holda shaxsning xulq-atvori va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga qaratilgan harakat mazmunini belgilab beradigan, uning ustuvor yo‘nalishlari, kutilayotgan natijalar va intilishlariga ta’sir qiluvchi kuchlar” [6] bo‘lsa, ichki omillar “oliy maqsad sari intilish: talabaning tashqi borliqqa va o‘ziga, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida ro‘y beradigan voqeliklarga munosabatini shakllantiradigan ehtiyojlari, qiziqishlari hamda ruhan o‘zini tayyorlashga oid ko‘rsatmalari” [6]dan iborat.

Obyektiv hamda subyektiv xarakterdagi omillarning ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirishga ko‘rsatadigan ta’siri xususida so‘z yuritishdan avval ilmiy-pedagogik faoliyat uchun asos sifatida Redyard Kiplingning “Qirol bo‘lishni orzu qilgan kishi” (“The Man Who Would Be King”), Jek Londonning “Hayotga muhabbat” (“Love of Life”), Jek Londonning “Gulxan yoqish” (“To Build a Fire”), O‘.Genrining “Magining tuhfasi” (“The Gift of the Magi”), Ernest Xemingueyning “Kilimanjarodagi qor” (“The Snows of Kilimanjaro”) asarlarining tanlangani aytib o‘tish joiz.

Nomlarini qayd etilgan asarlar mazmuni, yetakchi g‘oyasi, ilgari surilgan muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilish chog‘ida hatto syujetlar dinamikasini ta’minlashda ham obyektiv hamda subyektiv omillarning ta’siri yuqori ekaniga ishonch hosil qilindi:

1. Obyektiv (tashqi) omillar: ijtimoiy muhit, турмуш sharoiти, tabiat va unga xos anomal vaziyatlar, iqtisodiy holat, tarixiy-madaniy jarayon.

2. Subyektiv (ichki) omillar: shaxs ega bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, shaxsning axloqiy qiyofasi, xarakteri, e’tiqodi, ongi, dunyoqarashi, hissiyoti, irodasi, atrof-muhit (tabiatga va ijtimoiy subyektlar)ga bo‘lgan munosabati.

Qayd etilgan ushbu omillarning Redyard Kiplingning “Qirol bo‘lishni orzu qilgan kishi” (“The Man Who Would Be King”), Jek Londonning “Hayotga muhabbat” (“Love of Life”), Jek Londonning “Gulxan yoqish” (“To Build a Fire”), O‘.Genrining “Magining tuhfasi” (“The Gift of the Magi”), Ernest Xeminguyeyning “Kilimanjarodagi qor” (“The Snows of Kilimanjaro”) kabi asarlarida o‘z ifodjasini topishi ularning tarbiyaviy ta’sirchanligini oshirish bilan birga talabalarda ma’naviy-axloqiy mas'uliyat, insoniy burch, insonparvarlik, chidamli va irodali bo‘lish kabi fazilatlarni, shuningdek, tahlil hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini muvaffaqiyatli rivojlatiradi.

ISSN 3030-3907

Ayni o‘rinda tanlangan asarlarning har birida muayyan obyektiv hamda subyektiv omillar yaqqol aks etgan bo‘lib, ularning ta’sirida talabalarda ma’lum ma’naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi (1-jadval).

1-jadval.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish maqsadida tanlangan ingliz klassik adabiyotiga oid badiiy asarlar syujetlari dinamikasini belgilovchi obyektiv va subyektiv omillar

№	Mualliflar va asarlari	Etakchi g‘oyalar	O‘bektiv omillar	Sub’ektiv omillar	Tarbiyaviy ta’siri
1	Kipling Redyard. “Qirol bo‘lishni orzu qilgan kishi” (“The Man Who Would Be King”)	Hokimiyatga hirs qo‘yish, mag‘rurlik sabab yuzaga keluvchi axloqiy inqiroz va uning oqibatlarini ko‘rsatish	Mustamlaka siyosati, o‘zga mamlakatga tobe muhiti, ijtimoiy sharoit, hokimiyat tuzumi	Ochko‘zlik, manmanlik, ikkilanish, axloqiy beqarorlik	Kamtarlik, adolatparvarlik, mas’uliyatni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarini anglash
2	London Jek. “Hayotga muhabbat” (“Love of Life”)	Yashash uchun kurashi, o‘zgalarda yashashga umid uyg‘otish	Tabiiy sharoitning og‘irligi: kuchli sovuq va ochlik	Iroda, sabr egasi bo‘lish, yashash uchun intilish, og‘ir holatda ham umidsiz bo‘lmaslik	Hayotning qadrini anglash, irodani chiniqtirish
3	London Jek. “Gulxan yoqish” (“To Build a Fire”)	Inson va tabiat ning o‘zaro ziddiyati, insoniy ojizlik	Anomal iqlim, tabiat qonunlarining ustun ekani	Tajribasizlik, qaysarlik, o‘z kuchini ortiqcha baholash	Ehtiyotkor bo‘lish, shaxsiy bilim, tajriba/vaziyatni to‘g‘ri baholash
4	O‘.Genri. “Magining	Yaqin kishilarning	Ijtimoiy sharoit,	O‘zaro mehr, yaqini	Haqiqiy boylik

ISSN 3030-3907

	tuhfasi” (“The Gift of the Magi”)	bir-birlari uchun o‘zlarini fido qilishi, muhabbatni qadrlashlari	eyishmovchilik, kambag‘allik	uchun o‘zini qurbon qilishga tayyorlik	ma’naviy qadriyatlar ekanini anglab etish
5.	Xeminguey Ernest.“Kilimanjarodagi qor” (“The Snows of Kilimanjaro”)	Insonning ichki inqirozi, umrining poyonida hayot mazmunini tushunib etish	Tabiyy muhit, tabiat qonunlarining ustun ekani	Kasallik, hayotga munosabat, umrni sarhisob qilish, pushaymonlik ma’naviy bo‘shliqni his qilish	Umr mazmunini anglash, burchga sodiqlik, ijodiy faoliyatni qadrlash

Ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish obyektiv va subyektiv xarakterdagi pedagogik omillarning ta’siridan samarali foydalanish uchun ayrim jihatlarga e’tibor qaratish talab etiladi.

Bu jarayonda obyektiv va subyektiv pedagogik omillar mavjudligini ta’minlovchi quyidagi vazifalar hal qilinadi (2-jadval):

2-jadval.

Obyektiv va subyektiv pedagogik omillar mavjudligini ta’minlovchi vazifalar va ularni ijobiy hal qilish yo‘llari

№	Muhim vazifalar	Mazmuni	Pedagogik omillar
			Obyektiv omillar
1	2	3	4
1.	“Talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishda ingliz klassik adabiyoti namunalaridan foydalanish” nomli ta’lim dasturini ishlab chiqish	Unda tadqiq qilinayotgan pedagogik jarayonning mazmuni yoritilib, mexanizmi puxta asoslanadi	Ta’lim dasturi
2.	Ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni	Tajriba-sinov ishi (TSI)ning rejasi tuzilib, asosiy bosqichlar	Tajriba-sinov ishining loyihasi va rejasi

ISSN 3030-3907

	rivojlantirishra qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat loyihasini ishlab chiqish	belgilanadi; har bir bosqichda hal qilinadigan vazifalar aniqlanadi	
1	2	3	4
3.	Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishda ingliz klassik adabiyoti namunalaridan foydalanishga oid maxsus metodikani shakllantirish	Pedagogik faoliyat (TSI)ning samaradorlini ta'minlovchi tashkiliy shakllar aniqlanadi, samarali metod, vosita va texnologiyalar tanlanadi	Metodik ta'minot
4.	TSI uchun ingliz klassik adabiyoti namunalari asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik ishlanmalarni tayyorlash	Munozara, keys-stadi, muammoli vaziyat, didaktik o'yin, ijodiy loyihalar uchun amaliy ko'rsatmalar, testlar va ish qog'ozlari tayyorlanadi	Metodik ishlanma, amaliy ko'rsatma, keys, axloqiy dilemma, test va ish qog'ozlari
5.	TSI uchun bosma ko'rsatmali va visual qurollarni tayyorlash	O'quv plakatlari, taqdimotlar tayyorlanadi	Bosma ko'rsatmali va visual qurollar
6.	TSIni tashkil qilish o'quv vositalari (badiiy asarlar, o'quv plakatlari, taqdimotlar) va axborot texnologiyalari (interfaol doska, gadjetlar, kompyuterlar, proyektor) tayyor holga keltirish	O'quv vositalari (badiiy asarlar, o'quv plakatlari, taqdimotlar) va axborot texnologiyalari (interfaol doska, proyektor, gadjet va kompyuterlar) tayyor holga keltiriladi	Badiiy asarlar, taqdimotlar, o'quv plakatlari, axborot texnologiyalari (interfaol doska, proyektor, gadjet va kompyuterlar)
7.	TSI natijalarini tashxislash va baholash uchun nazorat vositalarini tayyorlash	Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlanganlik darajasini baholovchi mezonlarni, ko'rsatkich va darajalarni belgilash	Nazorat vositalari tizimi
Muhim vazifalar		**Mazmuni**	**Subyektiv omillar**

ISSN 3030-3907

1.	Pedagog kasbiy kompetentligining yaqqol namoyon bo‘lishiga erishish	Mashg‘ulotlar yuqori saviyada, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinadi, o‘quv natijalarining barqaror bo‘lishi uchun sharoit yaratiladi	Kasbiy kompetentlik
2.	Pedagog tomonidan ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvning qaror toptirilishi	Mashg‘ulotlar qiziqarli va noan’anaviy shaklda tashkil etiladi, mashg‘ulot jarayonida innovatsion muhit shakllanadi	Ijodiy yondashuv
3.	Akademik guruhlarda o‘zaro hamkorlik muhitining shakllantirilishi	Talabalar o‘rtasida hamjihatlik va o‘zaro yordam kuchayadi, guruhda ishlash samaradorligi oshadi, sog‘lom muhit shakllanadi	O‘zaro hamkorlik
4.	Mashg‘ulotlarda tanlangan badiiy asarlar qahramonlarining ibratining to‘laqonli ochib berilishiga erishish	Talabalar asarlar qahramonlarining axloqiy qarashlarini chuqur anglaydi, ularning xatti-harakatlari, xulqi asosida axloqiy xulosaga kelish malakasi rivojlanadi	Badiiy qahramonlarining ibrati
5.	Talabalarning tanlangan badiiy asarlar mazmunini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, motivatsiyasining oshirish choralarining ko‘rilishi	Talabalarda badiiy asarlarni mutolaasiga bo‘lgan qiziqish ortadi, ingliz klassik adabiyotiga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllanadi	Talabalarning qiziqish va motivatsiyasi
6.	Talabalarning tanlangan badiiy asarlarni o‘rganishda	Talabalar munozara va tahlillarda faol	Badiiy asarlarni o‘rganishdagi

ISSN 3030-3907

	faollik ko‘rsatishlariga erishish	qatnashadi, ularda mustaqil ishlash hamda tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi	faollik
7.	Talabalar tomonidan tanlangan badiiy asarlar vositasida ma’naviy-axloqiy idellar (qarashlar)ning o‘zlashtirilishini ta’minlash	Talabalarda yuksak ma’naviy qadriyatlar, axloqiy qaror qabul qilish malakalari, hayotga ongli va mas’uliyatli munosabat shakllanadi	Ma’naviy-axloqiy idellar (qarashlar)

Ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishda qayd etilgan pedagogik omillarning samarali ta’siridan foydalanish kutilgan natijalarning qo‘lga kiritilishini ta’minladi.

Shunday qilib, obyektiv va subyektiv xarakterdagi pedagogik omillar ingliz klassik adabiyoti misolida talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni samarali rivojlantirish jarayoniga bevosita hamda bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ko‘p bosqichli va murakkab jarayoni bo‘lgan talabalarda ma’naviy-axloqiy ideallarni ingliz klassik adabiyoti asosida samarali rivojlantirishda bir qator muhim omillarni hisobga olish zarur. Bu omillar pedagogik, psixologik, ijtimoiy va madaniy jihatlarni qamrab oladi. Redyard Kiplingning “Qirol bo‘lishni orzu qilgan kishi” (“The Man Who Would Be King”), Jek Londonning “Hayotga muhabbat” (“Love of Life”), Jek Londonning “Gulxan yoqish” (“To Build a Fire”), O‘.Genrining “Magining tuhfasi” (“The Gift of the Magi”), Ernest Xeminguyeyning “Kilimanjarodagi qor” (“The Snows of Kilimanjaro”) kabi asarlarida obyektiv (metodika, muhit, resurslar) va subyektiv (qiziqish, dunyoqarash, ehtiyojlar) omillarga tayanish ularning tarbiyaviy ta’sirchanligini oshirish bilan birga talabalarda ma’naviy-axloqiy mas’uliyat, insoniy burch, insonparvarlik, chidamli va irodali bo‘lish kabi fazilatlarni, shuningdek, tahlil hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini muvaffaqiyatli rivojlatiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Карманчиков А.И. Факторы формирования педагогической ситуации // Вестник ТГПУ. – Томск: 2010. - № 12 (102). – С. 32.
2. Объективные и субъективные факторы истории // http://filosof.historic.ru/enc/item/f00/s08/ a000802.shtm.
3. Омил // https://uz.wiktionary.org/wiki/omil.
4. Определение термина “Факторы” // https://tochka.com/info/glossary/faktory/?utm_campaign= g_info_glossary_faktory.

ISSN 3030-3907

5. Субъективные факторы воспитания // https://www.homework.ru/ spravochnik/subektivnie-faktori-vospitaniya.
6. Сущность системообразующего фактора педагогического процесса // https://spravochnick.ru/ pedagogika/sistemoobrazuyuschiy_faktor_ pedagogicheskogo_ processa.
7. Условия и факторы профессионального воспитания // https://psyera.ru/ usloviya-i-faktory-professionalnogo-vospitaniya_12350.htm.
8. Фактор (Большой словарь) // https://www.vedu.ru/bigencdic/65853; Фактор // https://gufo.me/dict/ bse/Фактор#google_vignette.
9. Фактор (Толковый словарь русского языка) // https://www.vedu.ru/ expdic/37192.
10. Фактор // https://ecolog.academic.ru/7519/Фактор.
11. Швачко Е.В., Гревцева Г.Я. Факторный подход как педагогическая проблема образования личности // Современные проблемы науки и образования. – М.: 2016. - № 6. – С. 452.
12. Энциклопедический словарь по психологии и педагогике (сводный) // https://psychology_ pedagogy.academic.ru/19323.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. 3-жилд. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳр.ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 122-б.

ISSN 3030-3907